

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

IBRAGIMOV BEKZOD TAXIRJANOVICH

**O‘ZBEKISTONDA ILK RENESSANS DAVRI FALSAFIY TAFAKKUR
RIVOJI (IBN SINO VA BERUNIY YOZISHMALARI MISOLIDA)**

09.00.03 – Falsafa tarixi

**FALSAFA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2025

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
философским наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
philosophical sciences**

Ibragimov Bekzod Taxirjanovich

О‘zbekistonda ilk renessans davri falsafiy tafakkur rivoji
(Beruniy va Ibn Sino yozishmalari misolida).....5

Ибрагимов Бекзод Тахиржанович

Развитие философского мышления периода Первого Ренессанса
в Узбекистане (на примере переписки Беруни и Ибн Сины).....23

Ibragimov Bekzod Takhirjanovich

The development of philosophical thought during the First Renaissance
in Uzbekistan (on the example of the correspondence between
Beruni and Ibn Sina)45

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of works published.....50

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

IBRAGIMOV BEKZOD TAXIRJANOVICH

**O‘ZBEKISTONDA ILK RENESSANS DAVRI FALSAFIY TAFAKKUR
RIVOJI (IBN SINO VA BERUNIY YOZISHMALARI MISOLIDA)**

09.00.03 – Falsafa tarixi

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro-2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.1.PhD/Fal667 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Guliston davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Tuychiev Berdiqu To'raqulovich
falsafa fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Yunusova Gulandom Samiyevna
falsafa fanlari doktori, professor

Madayeva Shaxnoza Omonullayevna
falsafa fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Navoiy davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/27.02.2020.F.72.08 raqamli ilmiy kengashning 2025 yil "31" may soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-29-14; faks: (65) 221-57-27, e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (669 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil "17" May kuni tarqatildi.

(2025 yil "17" May dagi 13 raqamli reyestr bayonnomasi.)



Namozov B.B.

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
falsafa fanlari doktori, professor

Sharipov A.Z.

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi,
falsafa fanlari doktori, professor

Safarova N.O.

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
falsafa fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda inson ongiga, qalb dunyosiga va milliy ma'naviyatga yot bo'lgan turmush tarzi shakllarining turli ko'rinishlarda singdirilishi, an'anaviy qadriyatlarning zaiflashuvi umumsivilizatsiyaviy miqyosdagi iqtisodiy-ijtimoiy beqarorliklarni, ma'naviy va axloqiy muammolar avj olayotganini ko'rsatadi. Shunday vaziyatda zamonaviy tafakkur, ilmiy yondashuvlar va madaniy jarayonlarning barqaror davomiyligini ta'minlash uchun insoniyat tarixidagi Uyg'onish davri merosini, o'sha davrning ilmiy-ma'naviy asoslarini chuqur tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, Abu Rayhon Beruniy va Ibn Sino yozishmalari metodologik an'alarini kognitiv rivojlantirish bilan uzviy bog'langan paradigmalarning ijtimoiy-falsafiy tafakkur taraqqiyotiga ta'sirini aniqlash, murakkab, ijtimoiy-mafkuraviy, madaniy jarayonlar, ma'naviy tanazzulni bartaraf etishda amaliy ahamiyatini ochib brish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon ilm-fani va yetakchi ilmiy tadqiqot markazlarida Uyg'onish davrining ijtimoiy va ma'naviy merosi, ulardagi falsafiy, huquqiy, siyosiy va axloqiy qarashlar, madaniy yuksalish omillari hamda ularning o'ziga xos xususiyatlariga oid tadqiqotlar olib borilmoqda. Ilk Renessans davri mutafakkirlarining ta'limotlari va g'oyalari, xususan, Markaziy Osiyo va Yevropa mintaqalarida insoniyatni gumanistik taraqqiyot sari yo'naltirgan, hayotning mazmuni va dunyoni anglashga oid falsafiy qarashlarning ilmiy tahlili tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Sharq va G'arbning turli madaniyatlariga asoslangan, Buyuk Ipak yo'li orqali mamlakatlar taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan, insonning faqat moddiy boylikka emas, balki ma'naviy boylik, e'tiqod va imon yo'lida intilish zarurati haqida fikrlarni komparativ tahlil qilish, Shayx (Ibn Sino) javoblariga Beruniy tomonidan keltirilgan e'tirozlarning ilmiy-falsafiy ahamiyatini tadqiq etish zarurati ortib bormoqda.

Mamlakatimizda demokratiya, erkinlik va tenglik, ijtimoiy adolat va birdamlik g'oyalari atrofida fuqarolarni jipslashtirish, yoshlarni ilm-fan va innovatsiyalarga keng jalb etish, ularni "Yangi O'zbekiston - Uchinchi Renessans sari!" shiori atrofida birlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimli tashkil etilmoqda. "Islom sivilizatsiyasining, islom ta'limotining zamini – aslida ilm-fan, madaniyat, ta'lim va tarbiyadir. ... ana shu tarixni yaqqol ko'rib, islom dini, bu avvalo, tinchlik, taraqqiyot va bag'rikenglik dini ekanini, o'zbek xalqining dunyo tamadduniga qo'shgan buyuk hissasini angelaydi. ...Chet eldagi mashhur muzey va kutubxonalar, nufuzli mutaxassislar bilan hamkorlik yo'lga qo'yilgani, kitoblar, maqolalar nashr etilayotgani e'tiborga loyiq. Bu ishlar doimiy va ilmiy asosga ega bo'lishi uchun ishni rejali tashkil qilish kerak. Bosh maqsadimiz – milliy o'zligimizni anglash va anglatish"¹. Shu uchun Beruniy va Ibn Sinoning qarashlaridagi ilmiy-falsafiy qadriyatlar, kosmologik konsepsiyalarning zamonaviy tabiatshunoslik fanlari yutuqlari bilan qiyosiy tahlili amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

¹ Мирзиёев Ш.М. Ислом цивилизацияси маркази – миллий ўзлгимиз, илм-фан, таълим ва маданият тимсоли // <https://president.uz/uz/lists/view/7843> Murojaat sanasi 29.01.2025.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 1-iyuldagi PF-6255-son “2021-2026 yillarga mo‘ljallangan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi milliy strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” farmonlari, 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-son “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 23-iyundagi PQ-3080-son “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-son “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Markaziy Osiyoda ilk uyg‘onish davri milliy davlatchilik rivojlanishida alohida o‘rin egallaydi. Ayniqsa, Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino kabi buyuk olimlarning qoldirgan noyob merosi, ularning umumfalsafiy masalalar, ontologik va gnoelogik nazariyalarga oid farazlari, hamda ta’limotlari paydo bo‘lishi, ijtimoiy-falsafiy tafakkur taraqqiyotining asosini tashkil etuvchi ijtimoiy qarashlar rivojlanishiga oid noyob ilmiy, falsafiy manbalar, ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. XIX asr oxiri – XX asr boshlariga kelib Beruniy va Ibn Sino asarlarini o‘rganishda H.Suter, T.Videman xizmati katta bo‘ldi. XX asrning ikkinchi yarimidan keyin, A.Jaylanining Abu Rayhon Beruniyning geliotsentrik ta’limoti, S.Nasrning Beruniy va Ibn Sino savol-javoblari haqidagi maqolalari chop etilgan. A.Sharma Beruniyning Sansara haqidagi ta’limoti haqidagi maqolasini nashr qildi. Keyingi yillarda mazkur yo‘nalishdagi tadqiqotlarni amalga oshirish va o‘rganish xorijlik olimlar Frederik Starr, Yul Yansens, Ley German, Georg Sarton, Stiven Brokkelman, Manxit Kumar, Charlz Snou kabilarning e‘tiborida bo‘lib kelgan².

² Suter H. Uber die Projektion der Strenbilder und der Lander von Al-Beruni. Med.Heft. IV. – Erlangen, 1922; Wiedemann T. Biografie von Al-Beruni nach ibn-abi Usaibi’a. Med. Societat in Erlangen. Bd. 44.1912; Mieli A. La science arabe et son role dans l’evolution scientifique mondial. – Leiden, 1938.; Arez Ghulam Jailani. Abu Rayhan al-Beruni’s Heliocentric theory// Programme of the session Abu Rayhan Beruni’s International Symposium. Dec.18-19, 1991. – Kabul University. – P. 3–4.; Al-Beruni and Ibn Sina. (Questions and Answers). Ed by Seyyed Hossein Nasr. – Tehran, 1972. – P. 104.; Sharma A. Al-Biruni on Hindu notion of Samsara //Islamic Culture. July, 1977. – P.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi davlatlari olimlari orasida sharqshunoslik maktabining vakillari Y.Bertels, A.Boldirev, Y.Zavadovskiy, B.Rozenfeld, V.Krachkovskiy, E.Frolova, R.Sadikov, D.Biryukov, M.Dinorshoyev, A.Sagadeyev, D.Komilov tomonidan Beruniy va Ibn Sino qarashlari atroflicha o'rganilgan³.

O'zbek olimlaridan I.Mo'minov, M.Xayrullayev, O.Fayzullayev, A.Sharipov, H.Aliqulov, A.Irisov, B.To'ychiev, B.To'raev, G.Navro'zova, B.Karimov, J.Xolmo'minov, F.Jo'raqulov tomonidan Beruniy va Ibn Sinoning ilmiy falsafiy yozishmalariga oid ilmiy tadqiqot ishlari chop etilgan. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, 1973 yil Toshkentda Beruniy tavalludining 1000 yilligi, 1980 yilda esa Abu Ali ibn Sino tavalludining 1000 yilligi nishonlandi. Shu munosabat bilan Beruniy va Ibn Sino ilmiy ijodiga oid ko'p jihatlar bayon etilgan bir qator to'plamlar chop etildi. Jumladan, Y.G'ulomov, R.Nosirov, A.Irisov, M.Baratov, S.Yo'ldoshev kabi o'zbek faylasuf olimlarining ilmiy maqolalari ushbu to'plamda o'z aksini topdi. Yangi O'zbekistonda ham ilk renessans davriga bag'ishlangan ilmiy ishlar izchil olib borilmoqda, Jumladan bu tadqiqotlarning aksariyati xususan, X.Salomova, N.Safarova, Sh.Madayeva, G.Masharipova, B.Namozov, G.Yunusova, M.Xandamova, M.Karimova, L.Yuldasheva, Q.Narimonov, N.Shamsutdinova⁴larga tegishlidir.

3-4.; Frederick Starr, *Lost Enlightenment: Central Asia's Golden Age from the Arab Conquest to Tamerlane*. – Princeton University Press, 2013; Julia Jansen. *Rediscovering aesthetics: transdisciplinary voices from art history, philosophy, and art practice*. Stanford University Press. 2008; Ley Hermann. *Geschichte der Auflarung und des Atheismus*. – Berlin: 1966. – P. 1-2; Sarton G.S. *Intraduction to the history of Science*. – Baltimore. 1927. Vol. 1 622-630; Brockelmann C. *Geschichte der arabischen Littertur*. – Berlin. Vol.1-2. 1898-1902; Манхит Кумар. *Квант, Эйнштейн, Бор и спор о природе реальности*. – Москва, 2015. – С. 398-399; Snow C.P. *Variety of man: Statesmen Scientists*. – Writers-London: Penguin, 1969. –P. 122-164.

³ Бертельс Е.Э. Авиценна и персидская литеатура // История литературы и культуры Ирана. – М.: Наука, 1988. – Б. 241-260; Болдирев А. Персидская литература с VIII по начало XIX века // Краткая история литератур Ирана, Афганистана и Турции: курс лекций. – Л., 1971. –С.4. Завадовский Ю.Н. Ибн Сина и его философская полемика с Беруни. Материалы научной сессии Академии наук Узбекистана, посвященной 1000-летию юбилею Ибн Сины. – Т., 1953. – С. 2; Розенфельд Б.А. Абу-р-Райхан ал-Бируни: 973—1048. Великий учёный-энциклопедист: астрономия, математика, инструменты, география, философия. – М.: УРСС. 2014. –С. 272. Крачковский Ю. Арабские рукописи городской библиотеки в Александрии // Записки Восточного отделения императорского Русского археологического общества. М., 1914. Вып. 1-2. –С. 14-28. Закуев А. Психология Ибн Сины. – Баку: Изд-во АН АЗССР, 1958. –С. 87. Фролова Е. Проблемы веры и знания в арабской философии. – М.: Наука, 1983. –С. 168. Садыков Р. Человек и мир в философии Ибн Сины: Дис. ... канд. филос. наук. – Санкт-Петербург, 2000. –С. 165. Бирюков Д.В. Онтологическое содержание учения Ибн Сины, о человеке, его жизни и бессмертии // Вестник Каракалпакского филиала АН Узбекской ССР. – Нукус, 1980. -№ 3. – С. 91. Диноршоев М.Д. Натурфилософия Ибн Сины. – Душанбе, 1985. –С. 69 с. Сагадеев А. Роль и предназначение человека в этических взглядах Ибн Сино // Торжество разума. – Душанбе, 1988. –С. 14. Комилов Д.Р. Авиценноведение в Таджикистане в XX и начале XXI вв. Монография / Под ред. д.ф.н., профессора Ахмедов С.А. – Худжанд, 2019. –С. 19.

⁴ Бируни и Ибн Сины. Переписка. / Ответственный редактор академик Муминов И.М. – Т.: Фан, 1973. –С. 39. Хайруллаев М.О. Малых трактатах и переписке Ибн Сины// Абу Али ибн Сина. К 1000 летию со дня рождения. – Т.: Фан, 1980. – С. 52-56. Файзуллаев А.Ф., Шарипов А.Ж. Беруний фалсафий қарашлари ва Аристотелнинг натурфилософияси. –Тошкент: Фан, 1973. –Б. 36. Алиқулов Ҳ. Абу Наср Фаробийнинг ижтимоий-маънавий мероси. –Т., 2013. –Б. 112. Ирисов А. Ибн Сино. Таржимаи ҳол // Ҳаким ибн Сино. – Т.: Ўзбекистон, 1992. –Б. 92. Тўйчиев Б.Т Проблема единичного и всеобщего в Средне-Азиатской средневековой философии. – Ташкент, 1978. –С. 14. Тўраев Б.О. Абу Райхон Беруний. – Т., Тафаккур, 2009. –Б. 96. Наврузова Г.Н. Хожа Баҳоуддин Нақшбанд ҳаёти ва маънавий мероси. – Т.: Фан, 2021. –Б. 244. Каримов Б. Абстрактликдан конкретликка кўтарилиш усулида объективлик ва субъективлик диалектикаси” Фалс. фан. док... дис. –Тошкент: ТошДУ, 1990. –Б. 208. Холмўминов Ж. Ваҳдат ул-вужуд фалсафаси ва унинг нақшбандия таълимотига таъсири (Ибн-ал-Арабий, Муҳаммад Порсо ва Абдурахмон Жомий қарашлари асосида). Фалс. фан. док. (DSc)... дис. автореф. – Тошкент: УзМУ, 2020. –Б. 60. Жўрақулов Ф.Н.

Yuqoridagilarni hisobga olib aytish mumkinki, Abu Ali ibn Sino va Beruniy asarlarini tadqiq etish faollashgan bo'lsa-da, ularning mohiyatini ochib beruvchi monografik tadqiqotlar yetarli darajada emas. Ayni paytda bu tarixiy ahamiyatga molik kashfiyotlar davrida ikki buyuk olim o'rtasidagi yozishmalarning mazmun va mohiyatiga bag'ishlangan ilmiy nazariy tadqiqotlar yetarli darajada emasligi, ushbu muammoga falsafiy-konseptual jihatdan yondashuvga alohida ehtiyojning mavjudligi ushbu dissertatsiyada o'z ifodasini topgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Guliston davlat universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining "Ilmiy tadqiqot faoliyatini rivojlantirish va ilmiy salohiyatini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar dasturi" (2022-2027-yy.) tadqiqot yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekistonda ilk uyg'onish davri falsafiy tafakkur taraqqiyotida Beruniy va Ibn Sino savol-javoblarining ontologik va gnoseologik ahamiyatini asoslab berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

O'zbekistonda ilk renessans davri vujudga kelishining ijtimoiy-tarixiy asoslari va o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etish;

ilk Renessans davrida ijtimoiy-falsafiy tafakkurning rivoji va uning jahon falsafasi tamadduniga ta'sirini aniqlash;

IX-XII asrlarda ilk uyg'onish davridagi ilmiy-falsafiy o'sish darajasi, yangi falsafiy ta'limotlar rivojlanishining o'ziga xos jihatlarini ilmiy asoslash;

Abu Rayhon Beruniy va Ibn Sino yozishmalari to'g'risidagi adabiyotlarni tahlil qilish ijtimoiy-falsafiy mohiyatini ochib berish;

Abu Rayhon Beruniy va Ibn Sino munozaralaridagi dialektik tafakkur va yozishmalaridagi ontologik va gnoseologik tadqiqotlarning tahlil etish;

Beruniy va Ibn Sino yozishmalaridagi metodologik an'alarini kognitiv rivojlantirish bilan uzviy bog'langan xulosalar ishlab chiqish;

Abu Rayhon Beruniy va Ibn Sino yozishmalarining yosh avlodni tarbiyalashdagi ahamiyatini asoslab berishdan iborat.

Абу Райҳон Беруний табиий-илмий ва ижтимоий-фалсафий меросининг Ғарб олимлари томонидан тадқиқ этилиши. Фалс. фан. ном... дис. автореф. –Тошкент, УзМУ, 2007. –Б. 48. Беруний ва ибн Синонинг савол-жавоблари. Иккинчи нашр. Масъул муҳаррир С.Муталибов, нашрга тайёрловчи А.Ирисов. – Т.: Фан, 1973. – Б. 48. Болтаев М.Н. Берунийнинг гелиоцентрик таълимоти ҳақида. – Тошкент, 1998. –Б. 19. Ғуломов Я.Ғ. Абу Райҳон Беруний яшаган давр. – Тошкент: Фан, 1973. –Б. 34. Йўлдошев С.А. Беруний қадимги ҳинд фалсафасидаги материалистик тенденциялар ҳақида. – Тошкент: Фан, 1973. –Б. 42. Саломова Ҳ., Иноятов А., Саломова Н. Ибн Синонинг тиббий илмий мероси. – Самарқанд, 2021. –Б. 176 б. Сафарова Н. Хожагон тасаввуфий таълимотида маънавий-ахлоқий кадрятлар масаласи. Фалс. фан. ном... дис. – Тошкент: 2002. – Б. 134. Madayeva Sh. A. Islamic law and its historical identification features. // Jcar Journal Of CAR/ Social science. –USA. №.2/1. 2021. – P. 16-28. Masharipova G.K. Xorazm Ma'mun akademiyasi allomalari tabiiy-ilmiy merosining ijtimoiy falsafiy tafakkur taraqqiyotiga ta'siri. Fals. fan. dok. (DSc) ... dis. avtoref. – Toshkent: UzMU, 2021. –Б. 72. Намозов Б.Б. Муҳаммад Порсо тасаввуфий таълимотининг фалсафий асослари. Фалс. фан. док. (DSc) ... дис. – Самарқанд: 2020. –Б. 234. Handamova M.A. Abu Rayhon Beruniyning ijtimoiy-falsafiy qarashlari. Fals. fan. dok. (DSc) ... dis. avtoref. – Samarqand: 2021. –Б. 72. Каримова М.Р. Этические проблемы в антропологии Ибн Сины: Автореф. дис. ... док. филос. наук. – Душанбе, 2009. –С. 19. Юлдашева Л.С. Абу Райҳон Беруний дунёкарашида ҳинд фалсафаси муаммоларининг талқини. Фалс. фан. ном. ... дис. автореф. –Тошкент: 2010. –Б. 4. Narimonov Q.G'. Abu Rayhon Beruniy va Frensis Bekon gnoseologik-axloqiy konsepsiyalarining falsafiy-komparativistik tadqiqi. Fals. fan. bo'y. fals. dokt. (PhD) ... dis. avtoref. –Toshkent: 2021. –Б. 52. Shamsutdinova N. Abu Ali ibn Sinoning tasavvufiy qarashlari. Fals. fan. dok. (DSc) ... dis. avtoref. – Buxoro, 2025. –Б. 73.

Tadqiqotning obyekti sifatida Markaziy Osiyoda ilk Renessans davri ilmiy-falsafiy tafakkuri, Beruniy va Ibn Sino yozishmalari hamda bu masalalar tahliliga bag‘ishlangan tadqiqot ishlari tanlab olingan.

Tadqiqot predmeti Beruniy va Ibn Sino yozishmalaridagi ontologik va gnoseologik qarashlarning falsafiy xususiyatlarini va e’tirozlarning hozirgi davrdagi ahamiyatini tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada analiz va sintez, dialektik, retrospektiv tahlil, qiyosiy tahlil, tizimlilik, sinergetik va funksional tahlil kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Beruniy va Ibn Sinoning qarashlarida tabiiy, aniq va tibbiyot fanlarini rivojlantirish, dunyoviy, diniy ilmlar tafovuti va Arastuning borliqning tadqiqi bilan bog‘liq ilmiy farazlari asosida Shayx javoblariga Beruniy tomonidan keltirilgan e’tirozlarning falakning moddiyligi, koinot jismlarining ko‘chma harakati, faol aql va birlamchi sabab “ilmiy iloh” kabi tamoyillari ochib berilgan;

yozishmalarda Ibn Sino javoblariga Beruniy e’tirozlarining 18 ta dolzarb va murakkab, hal qilinmagan naturfalsafa muammolariga xos makon, zamon va borliqning mavjudlik shakllari haqidagi ta’limotining tabiiy harakat va o‘zgarish, aql va iroda bilan tabiatni anglash, nutq va ijtimoiy hayotga moslashish, qulliyalar kabi zamonaviy ontologiyani kategorial apparati hamda borliqning moddiylik va ma’naviylik, o‘tmish va kelajak, o‘lim va hayot, ruh va jismni o‘zida mujassamlashtuvchi universal xususiyatlari aniqlashtirilgan;

Abu Rayhon Beruniy va Ibn Sinoning ontologik, gnoseologik konsepsiyalarini farqlashga qaratilgan yondashuvlarning qiyosiy tahlili asosida bilish jarayonining bilimning manbasi (sezgi va aql) – moddiy va abstrakt tushunchalarni anglash, haqiqat va bilim (bilimning maqsadi) – to‘g‘ri harakat qilish, aqlning chegaralari (aqlning ojizligi) – aql bilan anglash mumkin bo‘lmagan xilqat mavjudligi kabi fenomenologik jihatlari asoslangan;

Abu Rayhon Beruniy va Ibn Sino yozishmalari metodologik an‘analarini kognitiv rivojlantirish bilan uzviy bog‘langan paradigmalarning ijtimoiy xizmatlar, inson huquqlari, insoniy munosabatlar va tanqid qilish kabi ijtimoiy-falsafiy tafakkuri hozirgi davr siyosiy tendensiyalariga konstruktiv ta’siri, tabiat va inson o‘rtasidagi munosabatlarda haqiqatga intilish, sof ma’naviyat, inson aqlini rivojlantirish kabi tamoyillarning dunyoning yaxlit ilmiy manzarasini shakllantirishdagi ahamiyati ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Ibn Sino va Beruniyning asarlari hamda o‘zaro yozishmalari asosida globallashtirish jarayonida aksiologik tafakkurini shakllantirishning falsafiy g‘oyalari, ontologik va gnoseologik asoslari hamda interdissiplinar yondashuv asosida inson kapitali, ma’naviy meros va tafakkurni shakllantirish imkoniyatlari yangi zamonaviy nuqtai nazardan baholangan;

Markaziy Osiyoda ilk Renessans davrida falsafa fanining fundamental masalalari materiya (jism), harakat, vaqt va makon tushunchalari bilan bog‘liq fizikaviy kosmologik konsepsiyalarning zamonaviy tabiatshunoslik fanlari yutuqlari bilan uyg‘unligi asoslab berilgan;

ommaga mo'ljallangan ma'rifiy maqolalar, media-kontent va ma'ruzalar asosida qadimgi yunon mutafakkirlarining borliq to'g'risidagi ilmiy-falsafiy qarashlariga oid fikrlar, ta'limotlar rivojlantirilganligi, milliy ma'naviy merosni yanada teran anglash, faxr tuyg'usini oshirish hamda O'zbekistondagi ma'rifiy uyg'onish jarayoni ochib berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot jarayonida qo'llanilgan nazariy qarashlar, tadqiqot usullari va yondashuvlar rasmiy manbalar, faktlar, statistik ma'lumotlar, sotsiologik so'rov natijalariga murojaat qilingan holda olinganligi, tushuncha definitsiyasi ilmiy tadqiqot metodologiyasi va mantiq talablariga amal qilgan holda ishlab chiqilganligi, nashr etilgan ilmiy maqolalar, respublika va xalqaro konferensiyalarda sinovdan o'tkazilganligi, tadqiqot ishi natijalari bo'yicha berilgan xulosalar asosida takliflar ishlab chiqilgan bo'lib, tavsiyalar amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan asoslanad.

Tadqiqot natijalarining ilmiy-amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati undagi ilmiy-nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalardan Markaziy Osiyo ilk Renessans davri falsafiy tafakkur rivojini, Beruniy va Ibn Sino yozishmalari, ma'naviy merosining o'ziga xos jihatlari, tarixiy-falsafiy negizlarini tadqiq etishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlarida nazariy-metodologik asos sifatida, milliy-ma'naviy qadriyatlarni tiklash, aholi o'rtasida keng targ'ib qilish, ma'rifiy ishlarni amalga oshirish va sog'lom turmush tarzini shakllantirishda, yoshlarimizni o'zlikni anglash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashda, shuningdek allomalarning islom ma'rifatiga qo'shgan hissasini atroflicha yoritish, ilmiy-ma'naviy salohiyatimizni namoyon etish, milliy o'zligimizni anglash va anglatish ishlarida, ta'lim muassasalarida o'quv fanlarining mazmunini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Beruniy va Ibn Sino yozishmalarining mohiyatini falsafiy tahliliga oid qarashlardan ma'naviyat va ma'rifat markazlari amaliy faoliyatida, aholi o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etishda, ijtimoiy sohada faoliyat olib boruvchi institutlarning buyuk olim asarlari asosida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, kitoblar, risolalar nashr etish, OAVda dasturlar tayyorlashda, sog'liqni saqlash tizimida islohotlar olib borishda, ilmiy-ma'naviy merosga oid tadqiqotlarni muvofiqlashtirishda, xalqaro o'qishlarni o'tkazib turishda, xalqaro simpoziumlar, konferensiyalar, kongresslar o'tkazishda, shuningdek, ijtimoiy fanlar uchun o'quv-metodik qo'llanmalarni tayyorlashda, tasavvuf va falsafa lug'atlarini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbekistonda ilk Renessans davri falsafiy tafakkur rivojlanishida Beruniy va Ibn Sino yozishmalari mohiyatini ochib berish bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

Beruniy va Ibn Sinoning qarashlarida tabiiy, aniq va tibbiyot fanlarini rivojlantirish, dunyoviy, diniy ilmlar tafovuti va Arastuning borliqning tadqiqi bilan bog'liq ilmiy farazlari asosida Shayx javoblariga Beruniy tomonidan keltirilgan e'tirozlarning falakning moddiyligi, koinot jismlarining ko'chma harakati, faol aql va birlamchi sabab "ilmiy iloh" kabi tamoyillariga oid nazariy

xulosalar va umumlashmalardan O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining asosiy vazifalari va faoliyat yo‘nalishlari doirasida ta’lim muassasalarida tarbiyaviy ishlarni tizimli tashkil etishga qaratilgan “2024-2030 yillarda ta’lim muassasalarida o‘quvchi-yoshlarni milliy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish konsepsiyasi”ga asosan umumta’lim maktablarida tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirish, tizimli muammolar va ularni bartaraf etishga qaratilgan vazifalar ijrosini ta’minlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining 2024-yil 30-avgustdagi 04-37-2342-son ma’lumotnomasi). Natijada, maktab o‘quvchilarini ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda asosiy ijtimoiy institutlarning optimal o‘zaro hamkorligiga erishish haqidagi ilmiy fikrlari, Maktabgacha ta’lim va maktab ta’limi vazirligi faoliyatining kelgusi ish rejaları uchun ham xizmat qilgan;

yo‘zishmalarda Ibn Sino javoblariga Beruniy e’tirozlarining 18 ta dolzarb va murakkab, hal qilinmagan naturfalsafa muammolariga xos makon, zamon va borliqning mavjudlik shakllari haqidagi ta’limotining tabiiy harakat va o‘zgarish, aql va iroda bilan tabiatni anglash, nutq va ijtimoiy hayotga moslashish, qulliyalar kabi zamonaviy ontologiyaning kategorial apparati hamda borliqning moddiylik va ma’naviylik, o‘tmish va kelajak, o‘lim va hayot, ruh va jismni o‘zida mujassamlashtuvchi universal xususiyatlariga doir nazariy umumlashmalar va takliflardan O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan A-OT-2021-11-raqamli “O‘zbek xalqi diniy va milliy qadriyatları kompleksining elektron-transditsiplinar platformasini yaratish” (2021-2022 yy) amaliy loyihasi doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlashda foydalanilgan (Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining 2024-yil 14-noyabrdagi 04/11-10647-son ma’lumotnomasi). Natijada, Ibn Sinoning ma’naviy merosidagi antropologik va gnoseologik g‘oyalari asosida oila institutini mustahkamlash, tarbiyaviy va madaniy-ilmiy salohiyatni oshirish, tarbiyada umuminsiniy qadriyatlarning o‘rnini yuksaltirish imkoniyatlarini ochib berishga xizmat qilgan;

Abu Rayhon Beruniy va Ibn Sinoning ontologik, gnoseologik konsepsiyalarini farqlashga qaratilgan yondashuvlarning qiyosiy tahlili asosida bilish jarayonining bilimning manbayi (sezgi va aql) – moddiy va abstrakt tushunchalarni anglash, haqiqat va bilim (bilimning maqsadi) – to‘g‘ri harakat qilish, aqlning chegaralari (aqlning ojizligi) – aql bilan anglash mumkin bo‘lmagan xilqat mavjudligi kabi fenomenologik jihatlariga iod ilmiy yangiliklar va takliflardan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining 2023-yil uchun chora-tadbirlar dasturining VIII yo‘nalishida belgilangan “Milliy qadriyatlar, ma’naviy fazilatlar va ijtimoiy odoblar targ‘iboti” 41-bandi “Milliy davlatchiligimiz tarixi, buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy-ma’naviy merosini o‘rganish orqali aholi o‘rtasida milliy birdamlik, vatanga sadoqat, milliy o‘zligidan faxrlanish tuyg‘ularini kuchaytirish” mavzusida targ‘ibot ishlarini tashkil etish va o‘tkazishda dissertatsiya materiallaridan foydalanilgan (Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar institutining 2024-yil 6-sentabrdagi 964-son ma’lumotnomasi). Natijada, O‘zbekistonda ilk Renessans

davri falsafiy tafakkur rivojining ijtimoiy-falsafiy jihatlarini tahlil etishga xizmat qilgan;

Abu Rayhon Beruniy va Ibn Sino yozishmalari metodologik an'alarini kognitiv rivojlantirish bilan uzviy bog'langan paradigmalarning ijtimoiy xizmatlar, inson huquqlari, insoniy munosabatlar va tanqid qilish kabi ijtimoiy-falsafiy tafakkuri hozirgi davr siyosiy tendensiyalariga konstruktiv ta'siri, tabiat va inson o'rtasidagi munosabatlarda haqiqatga intilish, sof ma'naviyat, inson aqlini rivojlantirish kabi tamoyillarning dunyoning yaxlit ilmiy manzarasini shakllantirishdagi ahamiyatiga doir natijalar va xulosalardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasini "O'zbekiston" teleradiokanalida 2022-2024-yillarda efirga uzatilgan "O'zbekiston yoshlari", "Ta'lim va taraqqiyot" nomli dasturlar hamda "O'zbekiston tarixi" telekanalidagi teledasturlar ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasini "O'zbekiston teleradiokanali" davlat muassasasining 2024-yil 9-sentabrdagi 04-36-1003-son ma'lumotnomasi). Natijada, dasturlar ilmiy saviyasini oshishiga hamda tinglovchilarning siyosiy va huquqiy madaniyati rivojlanishi, O'zbekistonda so'nggi yillarda amalga oshirilgan demokratik islohotlar borasidagi bilimlari kengayishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola (4 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 144 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning "**Kirish**" qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi tavsiflangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti, predmeti, tadqiqotda qo'llanilgan usullar yoritilgan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan hamda dissertatsiya natijalarining joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e'lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**O'zbekistonda ilk renessans davri vujudga kelishining tarixiy shart-sharoitlari va o'ziga xos xususiyatlari**" deb nomlanib, unda O'zbekistonda Ilk Renessans davri vujudga kelishining ijtimoiy-tarixiy asoslari tadqiq etilgan, davrning o'ziga xos xususiyatlari va jahon falsafasi

tamadduniga ta'siri aniqlashtirilgan hamda ijtimoiy-falsafiy tafakkur rivoji xususiyatlari ochib berilgan.

Markaziy Osiyoda arablar istilosidan keyin mustaqil davlatlarning tashkil topishi va ularning tezkorlik bilan iqtisodiy qaramlikdan qutilishi ilk uyg'onish davrini yuzaga keltirdi⁵. Bu ikki omilning paydo bo'lishi Markaziy Osiyo xalqlarini tez rivojlanganligiga sabab bo'ldi. Xorazm Ma'mun akademiyasida aniq va tabiiy fanlar bilan bir qatorda ijtimoiy-falsafiy fanlar ham rivojlangan. Abu Rayhon Beruniy (973-1048 yy) va Abu Ali ibn Sino (980-1037 yy) o'rtasida olib borilgan yozishmalar buning yaqqol dalilidir. Bu falsafiy yozishmalar ikki buyuk olimning Ma'mun akademiyasidagi falsafiy ilmlarning yutuqlarini va olimlarning qiziqish doiralarini o'rganishga imkon beradi.

Tadqiqotda Beruniy va Ibn Sino bir davrda yashaganlari, Xorazmshoh Ma'mun xizmatida bo'lganlari ta'kidlangan. Keyinchalik Beruniy Jurjonga Qobus xizmatiga, Ibn Sino esa Rayga uning hokimi huzuriga ketishi natijasida ular ajralishib ketganlar, lekin ular doimiy bir-birlari bilan ilmiy mulohazalar ustida savol-javob tariqasida xatlar yozishib turganlar. Keyinchalik savol-javoblarning bir qismi kitob shaklida nashr qilinib, bugungi kunda Britaniya muzeyida saqlanmoqda. "Dar javob masoyili Aburayhon Biruniy" (Abu Rayhonning Xorazmdan Ibn Sinoga yozgan sakkiz savoli va unga Ibn Sinoning qaytargan javobining qo'lyozma nusxasi O'zRFA Sharqshunoslik institutida (№2385) nomer arabcha qo'lyozmasi saqlanadi⁶. Shuningdek, "Nomai donishvaron" asarining birinchi jildining, 70-71 betlarida, 18 savol-javoblar keltirilgan. Ushbu asarning ikkinchi jildida esa 10 savol-javob va 8 savol-javoblar 586-600 betlarida bayon etilgan⁷.

Dissertant fikriga ko'ra, allomalar tomonidan yaratilgan buyuk meros, dunyo ahamiyatiga molik asarlarni tahlil qilish dolzarb muammolardan biridir. Ilmiy izlanishlar shundan dalolat beradiki, ilk Renesans davrida Markaziy Osiyo hududida ilm-fan barcha sohalarining inqilobiy rivojlanishi sodir bo'lgan. Bu davrda fundamental fanlarda olamshumul kashfiyotlar, o'tmishda ilm fanda o'z yechimini topmagan muammolarning buyuk aql-zakovat natijasi o'laroq yechimlari jahon fanida e'tirof etila boshlandi. Uyg'onish davri madaniyati, fani va falsafasining o'ziga xosligi ham bir qancha bahs va munozaralarga uchragan. Xususan, professor N.Konrad o'zining "G'arb va Sharq" nomli kitobida quyidagi fikrlarni keltirib o'tadi. "Uyg'onish davrining o'ziga xos xususiyatlaridan biri shunda ediki, u antik madaniyat yutuqlarini uyg'onishini, ularni tiklanishini ko'ramiz"⁸ deydi. Ushbu bir tomonlama farazga akademik M.Xayrullayev e'tiroz bildirib, uni antik madaniyatni tiklash, uyg'otish deb talqin qilish noto'g'ri ekanligini aytadi. Va fikrini davom ettirib, antik madaniyatni tiklash uning

⁵ Булгаков П. Абу Райхон Беруний. –Тошкент: Фан, 1973. –Б. 3.

⁶ Хамдамова М. Абу Райхон Беруний билан Ибн Синонинг савол жавоблари. Илмий рисола. Самарқанд, 2022. –Б. 5.

⁷ Беруний – Ўрта асрлар буюк олими / Беруний вафотининг 900 йиллигига бағишланган мақолалар тўплами. –Тошкент, 1950. –Б. 123.

⁸ Конрад Н.И. Запад и Восток. –М.: Наука, 1966. –С.494.

uygʻonishidan kutilgan maqsad emas, balki asosiy vosita boʻlib xizmat qiladi, - deyish toʻgʻriroq boʻlsa kerak⁹.

Dissertant Markaziy Osiyoda, xususan Oʻzbekistonda ilk renessans davrining vujudga kelishi va dunyo sivilizatsiyasida tutgan oʻrni masalasida quyidagi fikrlarga kelgan: Oʻzbekistonda ilk renessans davri vakillari faqatgina antik davr allomalarnining ilmiy-falsafiy merosini oʻrganmadi, balki ushbu merosdan yangi fan sohalari, dunyo tamadduniga daxldor boʻlgan ilmiy kashfiyotlar yaratdi. Jahon sivilizatsiyasi vujudga kelishi avval Sharqda, undan keyin esa Yevropaga koʻchib oʻtdi degan farazni toʻliq isbotladi, buyuk bobokalonlarimiz Al Xorazmiy, Al Fargʻoniy, Abu Rayhon Beruniy va Ibn Sinolar jahon ilmu-fani uchun juda katta ilmiy meros yaratdi. Beruniy va Ibn Sino oʻrtasidagi ilmiy-falsafiy yozishmalar ham juda nodir meros ekanligi buyuk alloma Aristotelning ilmiy merosini nafaqat oʻquvchiga tushuntirdi, balki ilmiy mulohazalarga asoslangan yangi bilimlarni rivojlanishiga zamin yaratib berdi va kelajak avlod uchun yangi tabiiy-falsafiy farazlarni yaratdi.

Dissertantga koʻra, Markaziy Osiyoda ilk uygʻonish davri milliy davlatchiligimizning rivojlanishida alohida ahamiyatga ega. Xususan, Gʻarb olimlari tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda Ibn Sino va Beruniyning faoliyatini oʻrganish masalasi doimo dolzarb boʻlib kelgan. Umuman olganda uygʻonish davri allomalarnining merosini oʻrganish muammosi S.Nosir, G.Sarton, C.Brockelman, M.Kumar kabi olimlarning¹⁰ eʼtiborini tortib kelgan.

Dissertant mulohazalariga koʻra, Beruniy va Ibn Sinoning ilmiy gʻoyalari va konsepsiyalari insonni qurshab turgan olam va uning sir asrorlarini falsafiy bilish va Sharqdagi uygʻonish davrini jahon sivilizatsiyasidagi oʻrni aniqlashda muhimdir. Oʻzbekistonda ilk renessans davri vakillar faqatgina antik davr allomalarnining ilmiy-falsafiy merosini oʻrganmadi, balki ushbu merosdan, yangi fan sohalari, jahon sivilizatsiyasiga daxldor boʻlgan ilmiy kashfiyotlar yaratildi. Jahon sivilizatsiyasi vujudga kelishi avval Sharqda undan keyin esa Yevropaga koʻchib oʻtdi degan farazni oʻzlarining nodir asarlari va ilmiy kashfiyotlari bilan toʻliq isbotlagan buyuk bobokalonlarimiz: Al Xorazmiy, Al Fargʻoniy, Abu Rayhon Beruniy va Ibn Sinolar jahon ilmu-fani uchun juda katta ilmiy meros yaratdi. Beruniy va Ibn Sino oʻrtasidagi ilmiy-falsafiy yozishmalar ham juda nodir meros ekanligi, buyuk alloma Aristotelning ilmiy merosini nafaqat oʻquvchiga tushuntirdi, balki ilmiy mulohazalarga asoslangan yangi bilimlarni rivojlanishiga zamin yaratib berdi va kelajak avlod uchun yangi tabiiy-falsafiy farazlarni yaratdi. Ikki Sharq Renessans davrida jamiyatning ijtimoiy-siyosiy tarkibi, hokimiyat va davlatchilikning ijtimoiy xizmatlari, inson huquqlari, ijtimoiy insoniy munosabatlar va boshqa ijtimoiy masalalarni tadqiq qilish, ijtimoiy muammolar, ijtimoiy tarmoqlar, demokratiya, ijtimoiy hisoblar, ijtimoiy tanqid, ijtimoiy

⁹ Хайруллаев М. Уйғониш даври ва Шарқ мутафаккири. –Т.: Ўзбекистон, 1971. –Б. 91.

¹⁰ Сеид Хоссейн Наср. Бируни-Авитсенна в диалоге века. - Юнеско Париж, 1974. 27 с; Sarton G.S. Intradution to the history of Science. - Baltimore. 1927. Vol.1 622-630; Brockelmann C. Geschiete der arabischen littertur. Berlin. Vol. 1-2. 1898-1902.; Манхит Кумар. Квант, Эйнштейн, Бор и спор о природе реальности. - Москва: 2015. -С. 398-399.

tarmoqlarning ta'lim va ilmiy izlanishlar integratsiyasi, shuningdek, ijtimoiy xalqaro hamkorlik kabi hozirgi davr tendensiyalarini ham kuzatish mumkin.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Beruniy va Ibn Sino yozishmalarining ontognoseologik tahlili va ijtimoiy-tarixiy ahamiyati”** deb nomlangan bo‘lib, mazkur bobda Beruniy va Ibn Sino yozishmalarining ijtimoiy-falsafiy mohiyati ochib berilgan hamda ikki buyuk alloma yozishmalarida dialektik tafakkurning namoyon bo‘lish xususiyatlari tadqiq etilgan. Shuningdek, yozishmalarda ontologik va gnoseologik tadqiqotlar tahlili amalga oshirilgan.

Beruniy va Ibn Sino ilmiy falsafiy yozishmalarining bir qismi aynan olamni anglash masalasiga qaratilgan. Beruniy o‘zining to‘rtinchi savolida, aynan atomlar to‘g‘risidagi qarashlarida Ibn Sino fikrini bilmoqchi ekanligini alohida ta’kidlaydi. Beruniy o‘zining bergan savollarida Aristotelning kosmologik nazarisiga shubha bilan qaraydi va albatta Demokritning atomistik nazariyasini ham to‘liq tushuntirib berishni so‘raydi. Ushbu yozishmalarda asosan jism va moddalarning turli darajasi va ularining bir-birlari bilan munosabati, ta’siri va doimiy harakatda bo‘lishi faqat makro-mega darajada emas, balki makroolamda qanday kechishi ham Beruniy va Ibn Sino bahslarining asosiy mavzularidandir. Aristotelning fikricha, bo‘linmas zarralar tushunchasini nisbiy xarakterga ega bo‘lgan tushuncha deb hisoblaydi. Shuning uchun ham Beruniy o‘zining to‘rtinchi savolini “nima uchun Aristotel bo‘linmas bo‘lakchalar (ya’ni atom) bor deydiganlarning so‘ziga qo‘shilmaydi”¹¹ shaklida beradi.

Dissertatsiyada keltirilishicha, Beruniy va Ibn Sino yozishmalarining tarixiy ahamiyati, ilmiy-falsafiy qiymati juda katta. Beruniy va Ibn Sino ilmiy g‘oyalari va konsepsiyalari hozirga kelib ham dolzarbligini yo‘qotmagan. Olimlar ko‘targan ko‘plab masalalar, ilmiy bashoratlari va farazlari ilm-fan rivojida muhim bo‘lib, qator masalalarga yechim topishda qimmatli manba, va ayni paytda insonni qurshab muhitni organish muhimdir.

Dissertant shuningdek, Beruniy va Ibn Sino yozishmalarida dialektik tafakkurning o‘rni va roliga alohida e’tibor qaratgan. Sharqda ilm-fan va madaniyat qadriyatlar rivojlanishining avj olishi IX asrdan boshlanadi va unga katta hissa qo‘shgan olim va allomalar, davlat arboblari Beruniy va Ibn Sino tamaddun o‘chog‘i bo‘lgan Markaziy Osiyoda tug‘ilib, voyaga yetgan mutafakkirlar ekanligini qayd qilish darkor¹². Dialektika bo‘yicha aniq istilohlar yozishmalarda uchramasada, lekin dialektikaning muhim masalalari to‘g‘risida aniq faktlar keltirib o‘tiladi. Dialektik mulohazalar asosan yozishmalarning ikkinchi qismida, ya’ni Aristotelning “Fizika” asari to‘g‘risidagi qismida bayon etilganini ko‘rish mumkin. “Narsalar harakatini Beruniy Aristoteldan farqli o‘laroq bir narsaning o‘zida Sharq tomonga, yana biri G‘arb tomonga bo‘lgan ikki tabiiy harakatni o‘ylash mumkin emas. “Bu esa ma’nida mos bo‘lib, lafzda ayirmalik bo‘ladi deydi”. Ibn Sino Beruniyning bu fikriga qo‘shilib, “Agar og‘izdan falakning shunday harakatining borligini qiyomatga qadar faraz qilinsa ham men

¹¹ Абу Райхон Беруний. Қонуни Маъсудий. Танланган асарлар. (III-том). –Тошкент: Фан, 1973. –Б. 41.

¹² Qarang: Рахимов М.Х. Антропология Абу Али ибн Сины: Авиценны. / Автореферат, диссертации доктора философических наук. –Душанбе: 2005.

yo‘q deyman”¹³ – deydi. Bundan bilib olish mumkinki, dialektik va sinergetik jihatdan yozishmalarda qarama-qarshiliklar birligi va kurashi nazariyasi o‘z ifodasini topadi.

Dissertant fikriga ko‘ra, yozishmalarda Beruniyning dialektikasi ilmiy muammolarni talqin etishda, fikrlarni muhokama qilishda, fikrlarni tarqaltirishda, ilmiy fikrlarni tezlantirishda qo‘llanilgan. Unda ilmiy izohlar, fikrlar va muhokamalar belgilangan. Beruniyning dialektik qarashlri asosan ilmiy muammolarni tezlik bilan o‘rganish, o‘ziga xos xususiyatlarni topish va asosiy muammolarni tushuntirishda yuqori ma‘lumotlarni qo‘llash bilan izohlanadi. Bundan tashqari, borliqning yaralishi bilan bog‘liq bo‘lgan dialektik va sinergetik qarashlar Beruniy va Ibn Sino yozishmalarida o‘zaro aloqadorlik munosabatlarni o‘rnatish, bir-birlari bilan o‘zaro munosabatlarda, hamda ma‘naviy, ijtimoiy, iqtisodiy va tabiiy jarayonlarning aloqalarini o‘rganishda muhim rol o‘ynaganini ta‘kidlash zarur. Abu Rayhon Beruniy va Abu Ali ibn Sino ilmiy-falsafiy yozishmalarini obyektiv xolisona o‘rganish, dolzarb ahamiyatga egadir.

Dissertantning fikricha, yozishmalarning 2-savoli va unga berilgan javobda borliqni bilish darajasi aniq keltiriladi. Oddiy shaklda olamni anglashga doir ushbu savol javobda chuqur ilmiy asoslarga ega bo‘lgan gnoseologik qarashlarni shakllanganligini ko‘rishimiz mumkin. Ya‘ni olamni ilmiy bilish darajasi bundan ming yil avval ham allomalarimiz tomonidan chuqur ilmiy asoslar vositasida o‘rganilganligidan dalolat beradi. Uchinchi javobning aniqligi va ilmiy asoslantirilganligi ulug‘ alloma Beruniyni hayratga soladi. Aynan allomalarning gnoseologik qarashlari olam va borliqning inson ongidagi in‘ikosi masalasida bahs kechadi. Inson ongida bilish, olamni anglash masalalari atroflicha tahlil etiladi, insonning sezgi organlari tomonidan his etiladigan olam, uning ongidan tashqarida mavjud bo‘lgan olam o‘rtasidagi tafovut aniq ajratiladi. Shu boisdan uchinchi savolning gnoseologik mohiyati juda ham muhimdir.

Dissertant mulohazalariga ko‘ra, Beruniy va Ibn Sinoning ilmiy g‘oyalari va konsepsiyalari hozirga kelib ham dolzarbligini yo‘qotmagan. Olimlar ko‘targan ko‘plab masalalar, ilmiy bashoratlari va farazlari ilm-fan rivojida muhimdir. Yozishmalarning ahamiyati shunchalar muhimki, ular antik jamiyatning yirik namoyandasi Aristotelning fikri va mulohazalarini tarixiy-falsafiy jihatdan tadqiq etib berdilar. Borliqning yaralishi bilan bog‘liq bo‘lgan dialektika Beruniy va Ibn Sino yozishmalarida o‘zaro aloqadorlik munosabatlarni o‘rnatish, bir-birlari bilan o‘zaro munosabatlarda, hamda ma‘naviy, ijtimoiy, iqtisodiy va tabiiy jarayonlarning aloqalarini o‘rganishda muhim rol o‘ynaydi. Yozishmalarda allomalarning gnoseologik qarashlari olam haqidagi ratsional ilmlar rivojlanishida muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘ramiz.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Beruniy va Ibn Sino yozishmalarida Shayxning javoblariga Beruniy e‘tirozlarining mohiyati”** deb nomlangan, unda Arastu asarlariga oid savollarga berilgan javoblarda Shayxning borliq haqidagi qarashlarining namoyon bo‘lish xususiyatlari, Ibn Sino javoblariga Beruniyning e‘tirozlarida ilmiy-falsafiy g‘oyalar ifodalanishi tahlil etilgan hamda Beruniy va

¹³ Беруний билан Ибн Синонинг савол-жавоблари. / Масъул муҳаррир С.Муталибов. –Тошкент, 1976. –Б.5-6.

Ibn Sino yozishmalarida metodologik an'alarini kognitiv rivojlantirish bilan uzviy bog'langan ontologik va gnoseologik xulosalar chiqarilgan. Mazkur bobda Arastu asarlariga oid savollarga berilgan javoblarda Shayxning borliq haqidagi qarashlari tahlil qilingan.

Dissertant fikricha, ikki olim orasidagi ilmiy munozara, ya'ni savol-javob ularning keyingi ijodiga naqadar ijobiy ta'sir ko'rsatganligini yaqqol ko'rish mumkin. Ular haqiqatning bahsligini bilib, keyin ko'p olimlar bilan savol-javob qilganlar, hatto o'z asarlarini ham savol-javob tariqasida yozganlar. Masalan, Ibn Sino "Ishorat va tanbihot" va "Quroz tabiiyot" asarlarini, Beruniy esa "Kitob at-tafhim"ni savol-javob uslubida yozganlar. Beruniyning ilmiy ijodi faqat Ibn Sinoga emas, balki zamondoshlariga ham o'z ta'sirini ko'rsatgan. Masalan, Beruniy va Ibn Sinoning ustozlari, mashhur matematik, astronom Abu Nasr Arroq, Abu Sahl Masihiy va Abu Ali Hasanlar Beruniy asarlaridan foydalanganlar va unga atab 25 dan ortiq kitob yozganlar¹⁴.

Beruniy e'tirozlari mohiyatini o'rganish mazkur ilmiy tadqiqot ishining asosini tashkil etgan. Har qanday tarixiy jarayonda ham olam va odam, ijtimoiy munosabatlarida ko'plab muammoli savollar yechimini izlamoqda. Shu sababdan e'tirozlar qanday yuzaga kelganliginiq asl holatdagi yozishmalarda keltirilgan savol-javoblar mazmunidan bilib olinadi. Shayx aytadi: "Falak o'zining tabiiy o'rnidadir, ikkinchi kichik muqaddimaning to'g'riligi isbotlandi. So'zning tuzilishi shu natijaga keltiradikim, bu to'g'riroqdir. Ya'ni, falak aslida yengil ham, og'ir ham emasdir. Shuning uchunki, bor quvvatga asosan yengillik va og'irlik yoki butunida bo'ladi. Masalan, unsurlarning tabiiy o'rinlarida bo'lgan bo'laklariki, amalda ular na yengil va og'ir bo'lmasalar ham ularda yengillik, og'irlik bilquvvat va bilmakon bordir. Chunki ularning majburiy harakat bilan yo yuqorilab, yo quyilab o'z o'rinlariga qaytishlari mumkin. Yoki bilquvvat yengillik, og'irlik bo'laklarda bo'lib, butunda bo'lmaydi. Masalan, unsurlar qulliyalari, bular yengil ham emaslar, og'ir ham emas. Chunki ularning yarimlari yuqorilab harakat qilsalar, yarimlari quyiga tomon harakat qilishlari zaruriy bo'ladi. Bu hol shakllarining yumaloqligiga va boshqa ko'p sabablarga asoslangandir"¹⁵. Bu ma'noda, Ibn Sino o'zining ontologik qarashlarida fizik qonuniyatlarning ishlash tamoyillarini fikran bayon etadi, barcha fizik xossalar allomaning ta'biricha takrorlanmasdir.

Har bir harakat qildiruvchi yoki ta'sir etuvchi jism albatta harakat qiluvchi va ta'sirlanuvchiga bevosita tegadi va undan ta'sirlanadi. Buning bayoni Ibn Sinoning "Kitob ul-kavn va-l-fasod" asarining birinchi maqolasida bor. Endi biron jism falakdagi biron bo'lakni harakat qildirishi mumkin emas; faqat o'shal jism yo majburiy harakati, yo tabiiy harakati bilan falak bo'lagiga tutashgandagina falak bo'lagini harakatga solishi mumkin. Majburiy harakat falak qismiga yopishgan tashqi bir harakatlantiruvchining ishi bo'lib, falakning ma'lum tarafga tomon tabiiy harakat qiluvchi bo'lagiga borib cheklanadi. Bu

¹⁴ Хандамова М. Абу Райхон Беруний билан Ибн Синонинг савол-жавоблари. Илмий рисола. –Самарқанд, 2022. –Б. 6

¹⁵ Беруний билан Ибн Синонинг савол-жавоблари. 2-нашр. / нашрга тайёрловчи А.Ирисов. –Т.: 1973. –Б. 18.

harakatlantiruvchi boshqa harakatlantiruvchilarning birinchi harakat ettiruvchisidir¹⁶.

